


98. Koordinata nuri

Yondosh mavzu:
fotosuratlar.


Nur, belgi,
boshlanish nuqtasi.




1. O'quvchilar sinfdoshlari tushgan fotosuratlar ko'rgazmasini tashkil qilishdi. Qulay bo'lish uchun ilgaklarni 1-, 2-, 3-, ... deb nomerlab chiqishdi. Sanoq bo'yicha qaysi nomerdagi ilgaklarga fotosuratlar ilib qo'yilgan?



Sonlar tartibini belgilash uchun koordinata nuridan foydalanamiz. U barchamizga ma'lum bo'lgan chizg'ichga o'xshaydi.



Koordinata nuri – bu sanoq boshi berilgan, sanoq yo'nalishi ko'rsatilgan va bir xil kesmalar shtrixlar – bo'linmalar bilan belgilangan nur.





2. Koordinata nurida tushirib qoldirilgan sonlarni ayting.



3. Quyidagi algoritm bo'yicha koordinata nurini yasang.

- Gorizontaal chiziq chizing.
- Chap tomonda nurning boshlanish nuqtasini belgilab, tagiga 0 sonini yozing.
- Nurning o'ng tomondagi uchiga sonlarning o'sib borish yo'nalishini bildiruvchi strelka qo'ying.
- Sanoq boshidan boshlab, har ikkita katakdan keyin chiziqcha – shtrixlar qo'ying.
- Barcha shtrixlar tagiga 1 dan boshlab, ketma-ket natural sonlar yozing.

Sonli nurda nafaqat sonlarni, balki nuqtalarni ham belgilash mumkin. Nuqta tagidagi son bu nuqtaning noldan qanday masofada turganini bildiradi. Bu masofa nuqtaning koordinatasi deb ataladi.



Belgilanishi: $A(5)$



4. a) Birligi 2 katak bo'lgan koordinata nuri yasang. Bu nurda $A(3)$, $T(8)$, $R(5)$ koordinatali nuqtalarni belgilang. Qanday so'z hosil bo'ldi?
- b) Noldan A yoki R nuqtalargacha bo'lgan masofa nimaga teng?
- d) A va R hamda A va T nuqtalar orasidagi masofalarni toping.

98. Koordinata nuri



5. Madina fotoalbomiga fotosuratlarni sanasiga qarab, tartib bilan yelimlab chiqmoqchi. Unga suratlarni eng eskisidan eng yangisiga qarab saralashga yordam bering.

2022-yil 25-yanvar	13.05.23
2021-yil 14-mart	20.11.20
2022-yil 3-dekabr	12.12.19



6. Amallarni bajaring.

$12 \text{ km } 350 \text{ m} - 2 \text{ 789 m}$	$5 \text{ t } 620 \text{ kg} - 8 \text{ q } 76 \text{ kg} + 4 \text{ t } 13 \text{ kg}$
$8 \text{ m } 27 \text{ dm} + 43 \text{ dm } 6 \text{ cm}$	$2 \text{ kg } 102 \text{ g} - 769 \text{ g} + 1 \text{ kg } 475 \text{ g}$
$7 \text{ dm}^2 \text{ } 18 \text{ cm}^2 - 2 \text{ dm}^2 \text{ } 93 \text{ cm}^2$	$4 \text{ 378 l} + 2 \text{ m}^3 \text{ } 478 \text{ dm}^3$



7. Madinaning fotogalereyasida 336 ta fotosurat bor. Fotosuratlarning chorak qismi tog'larda, uchdan biri dengizda, qolganlari esa shaharda olingan. Fotogalereyada shaharda olingan nechta fotosurat bor?



8. Qutida jami 24 ta bo'lgan fotosuratlar, marka va taklifnomalar bor. Fotosuratlar taklifnomalardan 7 marta ko'p. Qutida nechta fotosurat, nechta marka va nechta taklifnoma bor?



9. Daftaringizda birligi 2 katak bo'lgan koordinata nurini yasang. Bu nurda quyidagi koordinatali nuqtalarni belgilang:
 $A(153 : 51)$, $I(203 - 199)$, $N(729 : 81)$, $P(331 : 331)$, $T(143 : 13)$.
Qanday so'z hosil bo'ldi?



10. Kichik fotoalbomga 32 ta, kattasiga esa bundan 3 marta ko'p fotosurat sig'adi. Madinaning uyida bitta katta va 4 ta kichik fotoalbom fotosuratlar bilan to'lgan bo'lsa, bu uyda jami nechta fotosurat bor?